

**QASHQADARYO VILOYATINING SUG'ORILADIGAN OCH TUSLI BO'Z  
TUPROQLARI SHAROITIDA MOSH YETISHTIRISH  
AGROTEXNOLOGIYASI.**

*Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti.*

*Tayanch doktorant: **Abdisalomova Iroda Normurod qizi***

*q.x.f.f.d.: **Abror Shoymurodov***

*Южный научно-исследовательский институт сельского хозяйства.*

*Поддерживает докторанта: **Абдисаламова, дочь Ироды Нормурод***

*q.x.f.f.d.: **Аброр Шоймуродов***

*Southern Agricultural Research Institute.*

*Supporting doctoral student: **Abdisalomova, daughter of Iroda Normurod***

*q.x.f.f.d.: **Abror Shoymurodov***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatining sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlari sharoitida mosh yetishtirish agrotexnologiyasi, ozuqaviy ahamiyati, mosh navlarini o'g'itlash me'yorlarini va bargdan oziqlantirish, mosh navlarining laboratoriya sharoitida unuvchanligi, o'simlikning o'sish va rivojlanishi, hosil elementlari shakllanishi, biometrik o'lchovlari, don hosildorligi va sifati ko'rsatkichlari to'g'risida ma'lumotlar berib o'tilgan.

**Аннотация:** В данной статье представлена агротехника выращивания мешанки на орошаемых светлых сероземах Кашкадарьинской области, ее пищевая ценность, нормы удобрения сортов мешанки и внекорневой подкормки, плодородность сортов мешанки в лабораторных условиях, рост растений и информация. по развитию, формированию элементов урожая, биометрическим измерениям, показателям урожайности и качества зерна.

**Abstract:** In this article, the agrotechnology of mash cultivation in the irrigated light gray soils of Kashkadarya region, its nutritional value, the standards of fertilizing mash

varieties and foliar feeding, the fertility of mash varieties in laboratory conditions, plant growth and information was provided on the development, formation of crop elements, biometric measurements, grain yield and quality indicators.

**Kalit so'zlar:** mosh, tuproq, ozuqaviylik, o'g'it, bargdan oziqlantirish, unuvchanlik, o'sish, rivojlanish, hosil elementlari, biometrik o'lchovlar, hosildorlik, sifat ko'rsatkichi.

**Ключевые слова:** каша, почва, питание, удобрение, внекорневая подкормка, плодородие, рост, развитие, элементы культуры, биометрические измерения, продуктивность, показатель качества.

**Key words:** moss, soil, nutrition, fertilizer, foliar feeding, fertility, growth, development, crop elements, biometric measurements, productivity, quality index.

**Kirish.** Markaziy Osiyo va Kavkazorti respublikalarida moshdan oziq-ovqat sanoatida keng foydalaniladilar. Moshdan tayyorlangan un makaronga ko'shilsa uning to'yimliligi yanada ortadi. Mosh dukkakli-don ekinlar guruhiga mansub bo'lib, donida ko'p miqdorda 24-28 % oqsil to'planadi. Undan oziq-ovqat sanoati bilan birga chorva hayvonlari uchun to'yimli yem-xashak ham yetishtirish mumkin. Shuningdek moshning ildizlarida tuganak bakteriya rivojlanib, erkin azotni o'zlashtirib, tuproq unumdorligini oshiradi. Ma'lumki, chorva hayvonlaridan yuqori va sifatli mahsulot olish uchun ularning ozuqa tarkibini o'zida oqsil, uglevod, yog' shuningdek vitaminlar, mineral tuzlar bilan boyigan pichan, siloslar bilan doimiy ta'minlash zarur. Buning uchun bizning respublikada imkoniyatlar yetarli bor. Birgina dukkakli-don ekinlar, dukkakli o'tlarni yuqori agrotexnika asosida yetishtirib, mo'l hosil va ko'k massa olish mumkin. Moshning yashil massasi, pichani, poxoli va kepagi eng yaxshi oziq hisoblanadi. Makkajo'xori bilan moshni aralashtirib tayyorlangan silos oziqlik sifati yuqoriligi bilan farq qiladi.

**Tadqiqot natijalari.** Tajriba xo'jaligi tuprog'i qadimdan sug'orib kelinadigan tipik bo'z tuproqdir. Tipik bo'z tuproq tarkibida 1,0-1,3% chirindi, 0,089%-0,102 atrofida azot, 0,141-0,184% ga yaqin fosfor va 1,70-1,80% kaliy mavjud. Bu esa o'simlik o'suv davrida foydalanadigan ozuqa unsurlarining yetarli emasligidan dalolat berib turibdi.

Bundan tashqari bu tuproqlar suv o'tkazuvchanligi, yumshatishning murakkabligi bilan farq qiladi. Sug'orish natijasida tuproq qatlami zichlashib boradi. Sug'orishdan va bo'lib o'tgan yog'ingarchilikdan keyin qatqaloq hosil bo'ladi. Tajribalar dala va laboratoriya uslubida olib borildi. Dala tajribalarida moshning navlari yozda har xil me'yorda va usulda ekib o'rganildi. Dala tajribalari O'zPITI(2007) va Dospexov (1985) uslublarida olib borildi. Mosh o'simligi boshqa dala ekinlari kabi fotosintetik faoliyatga ega. Bu faoliyat navning biologik xususiyati va tashqi muhitga bog'liqdir. Fotosintetik faoliyatning ko'rsatkichlari- bu barg soni, barg yuzasidir. Ma'lumki, barg yuzasi ma'lum bir me'yorgacha yuqori hosilni shakllanishini bildiradi. O'simlik rivojlanganda, oziqa va suv yetarli bo'lganda barglar yaxshi rivojlanadi, barg yuzasi kengayadi. Ammo barg yuzasi kengaygan bilan hosil ma'lum me'yordan keyin oshmaydi. Sababi, o'simlikning pastki qismida joylashgan barglarga quyosh nuri tushmaydi, fotosintez jarayoni sust kechadi, organik moddalar to'planmaydi. Har bir ekin va nav uchun bu jiddiy omil. Tashqi omillar bargni rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shu omillardan biri-oziquklanish maydoni. Mosh o'simligi yorug'likka talabchan. Mosh navlarini o'g'itlash me'yorlarini va bargdan oziqlantirishni ishlab chiqish natijasida o'simliklarga ma'danli o'g'itlarni o'simlik hosildorligiga uning sifat ko'rsatkichlariga ta'sirini yaxshilashga qaratilgan tadqiqotlar olib borildi. Qashqadaryo viloyatining sug'oriladigan maydonlaridan sifatli, arzon, ekologik toza, mahsuldorligi yuqori bo'lgan mosh donining sifatli bo'lishini ilmiy asoslash va ishlab chiqarishga tavsiya qilindi.

**Xulosalar.** Ekish muddatlari va me'yorlari barg rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan. Ekish me'yorlari oshgan sari barg soni kamaygan. Barcha mosh navlarida ekish me'yori 40 kg/ga bo'lganda barg yuzasi yuqori bo'lgan barcha ekish muddatlarida. Ekish muddatlari kechiktirilganda barg yuzasi kamayib borgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Atabaeva X.N, Sattarov M.A, Idrisov X.A Sug'oriladigan maydonlarda mosh yetishtirishning intensiv texnologiyasi bo'yicha tavsiyanoma. Toshkent 2019
2. Atabaeva X.N, Xudoyqulov J.B O'simlikshunoslik.T "Fan va texnologiya". 2018
3. Dospexov B.A. Metodika polevogo opita. - M.: Kolos, 1985. - 317 s.
4. Dala tajribalarini olib borish metodikasi O'zPITI.2007 yil.
5. Idrisov, X. A. Sug 'oriladigan maydonlarda mosh (*Phaseolus aureus* Piper.) Navlarining tavsifi. In international conferences on learning and teaching (vol. 1, no. 7, pp. 17-23).
6. Idrisov, X. A., Atabayeva, X. N. (2022, may). Loviya va mosh ekinlarining umumiy ahamiyati va biologik xususiyatlarini tahliliy o 'rganish. In international conferences on learning and teaching (vol. 1, no. 8, pp. 644-651).